

MAHMUD G'AZNAVIYNING MO'LTON O'LKASIGA QILGAN HARBIY YURISHLARI

Abdualimova Durdona Shavkat qizi

Fanlar Akademiyasi Tarix instituti, kichik ilmiy xodimi

E-mail: durdonashavkatovna@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Mahmud G'aznaviyning Multon hududiga qilgan yurishlari yoritiladi. Unda yurishlarning siyosiy-dini omillari, G'aznaviylar davlatining kuchayishidagi o'rni hamda Hindistonda islomiy hukmronlikni mustahkamlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Sulton Mahmud, Jaypal, Jat qabilalari, Anandpal, Multon, Qarmatiylar, G'urak qal'asi.

Аннотация: В статье освещаются походы Махмуда Газневи на территорию Мултана. Анализируются политико-религиозные причины этих походов, их роль в укреплении государства Газневидов, а также значение в процессе закрепления исламского владычества в Индии.

Ключевые слова: Султан Махмуд, Джайпал, племена джатов, Анандпал, Мултан, карматиты, крепость Гурак.

Annotation: The article highlights Mahmud of Ghazni's campaigns in the region of Multan. It analyzes the political and religious factors behind these campaigns, their role in strengthening the Ghaznavid state, and their significance in consolidating Islamic rule in India.

Keywords: Sultan Mahmud, Jaypal, Jat tribes, Anandpal, Multan, Qarmatians, Gurak fortress.

Kirish: G'aznaviylar sulolasining eng yirik hukmdorlaridan biri Sulton Mahmud G'aznaviy (998–1030) 11-yuzyillikning boshlarida Hindistonning g'arbiy hududlariga ayniqsa Multonga bir nechta harbiy yurishlar uyushtirgan bo'lib, ular orasida diniy sabablardan tashqari siyosiy va iqtisodiy maqsadlar ham yotgan edi. Multon strategik jihatdan ham, diniy va iqtisodiy nuqtayi nazardan ham muhim markaz bo'lib, bu yerda qarmatiylar va Jat qabilalari istiqomat qilgan. Sulton Mahmud uch marta Multon ustiga yurish qilib, uni to'liq o'z nazorati ostiga olgan. 1005-1027-yillarda olib borilgan bu yurishlar alohida ahamiyatga egadir.

Birinchi Multon yurishi: 1005-yilda Sulton Mahmud G'aznadan Multon sari yurish boshladi. U to'g'ridan-to'g'ri yo'l bilan yurish xavfli bo'lishini anglab yetdi, chunki Multon amiri Nasr o'g'li Dovud hujum haqida xabar topib, mudofaa choralarini ko'rishi mumkin edi. Shu sababli u boshqa yo'ldan yurishga qaror qildi. Yo'l ustida Panjob hukmdori Jaypal o'g'li Anandpal (Anandapala) yo'lni to'sib, o'z

hududidan o'tishga ruxsat bermadi.¹⁴ Amir Mahmud qo'shiniga erkin harakat qilish huquqini berdi va ular Anandpal yerlariga bostirib kirib, aholining bir qismini asir oldi, boshqalarini qatl qildi, mol-mulkini taladi. Anandpal Kashmir tog'lariga qochdi. Shundan so'ng Mahmud Hindistonning asosiy yo'li orqali Multonga yetib borib, shaharga yetti kunlik qamal uyushtirdi. Muzokaralar natijasida tinchlik bitimi tuzildi: Multon har yili yigirma million dirham tovon to'lashga majbur bo'ldi.¹⁵

Ikkinchi Multon yurishi: 401-hijriy (1010–1011 milodiy) yilda Sulton Mahmud yana Multonga yurish qildi. Bu safar u viloyatning qolgan qismini ham to'liq egalladi. Multonda yashovchi qarmatiylarning¹⁶ katta qismi qo'lga olindi. Shundan so'ng juma namozini Qarmatiylar yetakchisi Jalam ibn Shaybon tomonidan qurilgan masjidda o'qishga farmon berdi.¹⁷ Shuningdek, Multon amiri Dovud ibn Nasr asir olinib, G'aznaga olib kelindi va G'urak qal'asiga yuborildi. U umrining oxirigacha shu qal'ada qamoqda saqlandi.

Uchinchi Multon yurishi: Somnat¹⁸ yurishidan qaytayotgan Amir Mahmudning yo'lini Jat¹⁹ qabilalari to'sib, uning qo'shinlariga ko'plab talofatlar yetkazgan edi. Bu hodisa sultonning siyosiy obro'siga va mintaqadagi nazoratga tahdid solganligi sababli, u Jatlardan qattiq qasos olishga qaror qiladi. 1027-yilda u Multon²⁰ hududida yashovchi Jat yerlariga yurishni boshlaydi.²¹

Yurishga tayyorgarlik va strategik yondashuv; Amir Mahmud Multonga yetib kelgach, daryo janglariga tayyorlanish uchun 1 400 ta maxsus harbiy qayiq yasashga farmon beradi.²² Har bir qayiqning oldi va ikki yoniga o'tkir va mustahkam temir nayzalar o'rnatiladi. Har bir qayiqda 20 nafar jangchi bo'lib, ular kamon-o'q, yonuvchi nafta, qalqon va himoya vositalari bilan jihozlanadi.²³ Bu usul G'aznaviylar harbiy san'ati tarixida yirik suvdagi tizimli harbiy operatsiyalardan biri sifatida tarixga kirgan.

Jangni olib borilishi: Jatlar Sulton Mahmudning yaqinlashayotganidan xabar topib, o'z oilalari va mol-mulkini Indus daryosida joylashgan orollardan biriga

¹⁴ Abu Nasr Muhammad ibn Abdujabbor al-Utbit. Tarixi Yaminiy. Toshkent. 2023. 419-bet.

¹⁵ Abu Sa'id Abd al-Hayy Gardizi. The ornament of histories. A history of the eastern Islamic lands AD 650-1041.London. 2018.P.87.

¹⁶ Qarmatiylar - 899-yilda Bahraynda utopik jamoani yaratgan yirik jangari diniy va siyosiy islomiy harakatdir. Ularning rahbari Hamdan Qarmat Fotimiylar xalifaligi asoschisi Ubaydullohni imom va Muhammadning "haqiqiy Imomi va Mahdiy Muhammad" kelishi sifatida tan olmagan sababli ular an'anaviy ravishda ismoiliylardan ajralib chiqqan.

¹⁷ Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. Toshkent. 1965. 99-bet.

¹⁸ Somnat yurishi - Sulton Mahmudning 1025-yilda islom dinini yoyish maqsadida amalga oshirgan harbiy yurish.

¹⁹ Jat qabilasi - Shimoliy Hindiston va Pokistondagi an'anaviy qishloq xo'jaligi jamoasi. Hozirda ular Hindistonning Haryana Uttar-Pradesh va Rajeston shatlatlarida hamda Pokistonning Sind va Panjob mintaqalarida istiqomat qilishadi.

²⁰ Multon - Pokistonning Panjob viloyatida joylashgan tarixiy shahar.

²¹ Abu Sa'id Abd al-Hayy Gardizi. The ornament of histories. A history of the eastern Islamic lands AD 650-1041.London. 2018.P.96.

²² Abu Sa'id Abd al-Hayy Gardizi. The ornament of histories. A history of the eastern Islamic lands AD 650-1041.London. 2018.P.97.

²³ O'zbekiston tarixi XVIII jild. Toshkent. 2023. 172-bet.

ko'chiradilar, 4 000 dan ortiq qayiqda (ba'zi manbalarda 8 000) to'liq qurollangan erkaklar jangga kiradilar. Jang boshlanishi bilan musulmon kamonchilari va nafta uloqtiruvchilari dushman ustiga o'q va olovli idishlar yog'diradi. G'aznaviylar qayiqlari Jat qayiqlariga yaqinlashganida o'rnatilgan nayzalar ularni yorib, cho'ktiradi. Natijada dushman flotining ko'p qismi halokatga uchraydi.

Quruqlikda esa oldindan joylashtirilgan otliq va piyoda askarlar jangdan omon qolgan Jat jangchilarini qo'lga olib yo'q qiladilar. Keyinroq G'aznaviylar lashkari daryo bo'ylab yurib, Jatlarning oilalari va yuklarini qo'lga kiritadi, ulkan o'lja va ko'plab asirlar qo'lga olinadi. Endigi navbat Multon qal'asini qamal qilish edi. Qazuvchilar qal'a tomon qazishma ishlari olib borar, qolgan jangchilar esa tinimsiz kamondan o'q uzishar edi.²⁴ Bu ko'rgan Multon hokimi Abdulfutuh²⁵ g'alabaga erisha olmasligini bilib, barcha mollarini fillariga ortib Sarandeb²⁶ tomonga chekindi.²⁷ Hokimsiz va himoyasiz qolgan shahar taslim bo'ldi.

Natija va siyosiy oqibatlar: Bu yurish G'aznaviylar sulolasining Hindiston g'arbidagi chegaralarda nazoratni tiklashiga, Jatlarning harbiy salohiyatini butkul izdan chiqarishga xizmat qildi. Bu ekspeditsiya Sulton Mahmudning nafaqat sarkarda, balki markazlashgan davlatni mustahkamlovchi hukmdor sifatidagi qobiliyatini ko'rsatdi.

Xulosa: 1005, 1010–1011 va 1027-yillardagi uchta yurish natijasida Multon to'liq G'aznaviylar tarkibiga qo'shildi. Qarmatliy harakati bostirildi, Jatlar esa butunlay mag'lub etilib, mintaqadagi savdo yo'llarining xavfsizligi ta'minlandi. Bu yurishlar Amir Mahmudning nafaqat quruqlik, balki suv ustida ham yirik harbiy amaliyotlar o'tkaza olgan sarkarda sifatida tarixda nom qoldirganini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Nasr Muhammad ibn Abdujabbor al-Utbit. Tarixi Yaminiiy. Toshkent. 2023. 420-bet
2. Abu Sa'id Abd al-Hayy Gardizi. The ornament of histories. A history of the eastern Islamic lands AD 650-1041.London. 2018.P.99.
3. Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. Toshkent. 1965. 99-bet.
4. Boswort. The early Ghaznavids. 1992. 138-p.
5. Arslan Durdu. Gazneli devlati'nin askerî teşkilâtı. Haziran. 2022. S.112.
6. Abdulkarim Özeydin ve benzeri. İlk müslüman türk devletleri. Anadolu universitesi. Eskişehir. 2018. S.116.
7. Ibn Haqval. Kitob surat al-arz (Yerning surati kitobi). Toshkent. 2011. 127-bet.

²⁴ Abu Sa'id Abd al-Hayy Gardizi. The ornament of histories. A history of the eastern Islamic lands AD 650-1041.London. 2018.P.99.

²⁵ Abu Nasr Muhammad ibn Abdujabbor al-Utbit. Tarixi Yaminiiy. Toshkent. 2023. 418-bet.

²⁶ Hindistonning Jharkhand shtatida joylashgan zich o'rmon. Mahalliy tilda tepalik degan ma'noni anglatadi.

²⁷ Abu Nasr Muhammad ibn Abdujabbor al-Utbit. Tarixi Yaminiiy. Toshkent. 2023. 420-bet

8. Istaxriy. Kitab al-masalik val-mamalik (Yo'llar va o'lkalar kitobi). Toshkent. 2019. 132-bet.

9. محسن شاه بختی، مصطفی ناصری راد، بشری دلریش، جواد سخا. جایگاه فیل هندی در سپاهیگری عصر غزنوی. فصلنامه علمی پژوهشنامه تاریخ. سال شانزدهم زمستان ۱۴۰۰، شماره ۶۵. صفحات ۱۸۴ - ۱۶۱. ص ۱۶۹.